

“Kelajak soati” darsining 1-4-sinflar uchun mashg‘ulot ssenariysi

33-mavzu: “Millat fidoyilari. Xotira va qadrlash”

Dars maqsadi: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tinchlik so‘zining ma‘nosini tushuntirish, yurtimiz tinchligi yo‘lida jonini fido qilgan mard ajdodlari haqida tushuncha berish.

Annotatsiya: O‘quvchilarda vatanparvarlik, fidoyilik, minnatdorlik va ajdodlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirishga qaratilgan. “Millat fidoyilari. Xotira va qadrlash” mavzusi orqali o‘quvchilar Vatan ozodligi, tinchligi va taraqqiyoti yo‘lida jonini fido qilgan ajdodlar, harbiylar hamda zamonaviy qahramonlar faoliyati bilan tanishadilar. Mashg‘ulot davomida o‘quvchilarda milliy g‘urur, mehr-oqibat, qadriyat va tarixiy xotiraga ehtirom tuyg‘ulari mustahkamlanadi. Interfaol suhbatlar, she‘r va qo‘shiqlar, rolli o‘yinlar, shuningdek, “Biz ham fidoyimiz!” nomli ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda etishga, qahramonlarga munosib avlod bo‘lishga intiladilar.

Aniq maqsadlar:

- O‘quvchilarga el-yurt tinchligini asrash – oliy baxt tushunchasini yurakdan his etishga o‘rgatish;
- O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va faxr tuyg‘usini shakllantirish, millat fidoyilari – mardlar, olimlar, harbiylar, mehnat qahramonlari faoliyati orqali ularning fidoyiligini anglashga o‘rgatish;
- O‘tmish qahramonlari va zamonaviy fidoyilar xotirasini hurmat qilish madaniyatini singdirish, “Xotira va qadrlash” tushunchalarining mazmunini o‘quvchilarga tushunarli tilda yoritish;
- O‘quvchilarda minnatdorlik va qadrlash tuyg‘ularini tarbiyalash, ota-onalar, ustozlar, harbiylar va jamiyat fidoyilarining mehnatini e‘tirof etishga undash;
- O‘quvchilarda milliy g‘urur, birdamlik va mehr-oqibat hislarini mustahkamlash, o‘z xalqining tarixini bilishga, milliy qadriyatlarni asrab-avaylashga yo‘naltirish;
- Ijodiy va kommunikativ faollikni rivojlantirish – she‘r o‘qish, suhbatlashish, rasmlar chizish, rolli o‘yinlar orqali o‘z fikrini erkin ifoda etish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

Asosiy g‘oyalar:

Dars mashg‘ulotlari davomida o‘quvchilar Vatanni himoya qilish shu yurt fuqarosining sharaflı burchi ekanligini tushunadi.

Vatan – bizning uyimiz. Men maktabim, uyim, mahallam va oilam orqali Vatanimni his qilaman va sevaman.

Millatimiz – til, kiyim, urf-odat va tarix. O‘zbek tili, milliy kiyimlar, odatlar va madaniyatimiz bizni birlashtiradi.

Fidoyilar – ibrat. Vatan uchun mehnat qilgan bobolarimiz, harbiylar va ustozlar – bizning qahramonlarimiz. Ularni yod etish va qadrlash – burchimiz.

Men ham vatanimga sodiq farzand bo‘laman. Kichik bo‘lsam ham, tartibli bo‘lish, tozalikka rioya qilish, daraxt ekish, kattalarga yordam berish – Vatanga xizmat demak.

Hurmat va minnatdorlik. Ustozlar, qo‘shnilar, do‘stlar, katta-kichik – barchasi xalqimizning bir bo‘lagi. Ularga hurmat ko‘rsatish va “rahmat” aytish – yaxshi odob.

Xotira – qalbimizda. Qahramonlarning nomini eslab, ularning jasoratini davom ettiramiz: tinchlikni sevamiz, bir-birimizga mehribon bo‘lamiz.

Darsdan keyin kutiladigan natijalar:

1. O‘quvchilar “fidoyilik” va “qadrlash” tushunchalarini anglaydilar, Vatan, xalq va ajdodlarga hurmat bilan qarashni o‘rganadilar.

2. O‘quvchilarda Vatanga muhabbat va faxr tuyg‘usi kuchayadi, ularning milliy qadriyatlar, tarixiy shaxslar va qahramonlarga nisbatan ehtiromi ortadi.

3. O‘quvchilar minnatdorlik, mehr-oqibat va hurmat fazilatlarini namoyon etadilar, atrofda qilishga intiladilar.

4. Har bir bola o‘zini jamiyatning foydali a‘zosi, deb his qiladi, kichik amallar bilan ham Vatanga xizmat qilish mumkinligini tushunadi.

5. O‘quvchilar o‘z fikrini erkin ifoda etish, suhbatlashish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradilar.

6. Xotira va qadrlash bayramining ma‘nosi haqida bilib oladilar, fidoyi insonlar – harbiylar, ustozlar, ota-onalar, mehnatkashlar haqida ijobiy tasavvur shakllanadi.

7. Estetik va axloqiy tarbiya kuchayadi: O‘quvchilar she‘r, rasm, qo‘shiq yoki sahna ko‘rinishlari orqali fidoyilik g‘oyasini ijodiy tarzda ifodalay oladilar.

Metapredmet: Dunyo davlatlari hamda qo‘shnilarimizga nisbatan do‘stlik, tinchlik va hurmat ruhida munosabat shakllanadi. O‘quvchi yurt tinchligi oliy baxt ekanligi va vatanparvarlik tuyg‘usini anglab yetadi.

Dars hamkori: Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti.
<https://milliytarbiya.uzedu.uz/>

Dars davomiyligi: 45 daqiqa.

Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli: bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘shimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

Materiallar to‘plami

ssenariy;

uslubiy tavsiyalar;

videomateriallar;

interaktiv topshiriqlar;

taqdimot.

I. KIRISH. Motivatsion qism (5 daqiqa)

O'qituvchi bolalar bilan salomlashgach, bir dona oddiy daftarni ko'rsatadi.

O'qituvchi: Bolajonlar, bu nima?

O'quvchilar: Daftar!

O'qituvchi: Biz nima uchun daftar tutamiz va unga mashqlarni yozamiz? Qani, kim aytadi?

O'quvchilar: Bilimli bo'lish uchun, darslarni unutmash uchun, mustahkamlash uchun...

O'qituvchi: To'g'ri. Agar men daftarga yozganlaringizning barchasini o'chirib tashlasam, nima bo'ladi?

O'quvchilar: Daftar bo'sh bo'lib qoladi.

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Inson xotirasi ham shu daftarga o'xshaydi. Ya'ni u insonni bilimli qiladi, tajribali qiladi, xatolardan asraydi va yaxshi paytlarni eslatib hayotga muhabbat uyg'otadi.

Endi tasavvur qiling, agar inson hamma narsani unutib qo'ysa-chi? O'z ota-onasini, ustozini, yurtini, tarixini unutsa? Bunday odam qanday bo'ladi?

O'quvchilar: Hech narsani bilmaydi. Yomon bo'ladi. Adashib qoladi.

O'qituvchi: Demak, bugungi darsimiz juda muhim tushunchalar – xotira, qadrlash va ularning tinchlikni saqlashdagi roli haqida bo'ladi.

O'qituvchi doskaga yozadi:

XOTIRA, QADRLASH, TINCHLIK.

II. ASOSIY QISM (30 daqiqa)

O'qituvchi: Bolajonlar, xotira bu faqat eslab qolish degani emas. Xotira bu – yurakda saqlash degani. Masalan, siz onangizning mehrini unutasizmi? Ustozingizni-chi? Yoki sizga yaxshilik qilgan insonni esdan chiqarib yubora olasizmi?

O'quvchilar: Yo'q.

O'qituvchi: Demak, xotira – bu qalbimizdagi iliqlik, mehr va minnatdorlik tuyg'usi ekan. U bizga kimligimizni eslatib turadi. Agar xotira bo'lmasa, biz kimning farzandi ekanimizni bilmaymiz, kimlar biz uchun jon fido qilganini unutamiz, yaxshilik va yomonlikni ajrata olmaymiz.

Endi ayting-chi, qadr deganda nimani tushunasiz?

O'quvchilar: Hurmat qilishni.

O'qituvchi: To'g'ri. Lekin qadr – bu faqat hurmat emas. Qadr – bu minnatdorlik degani. Masalan, ota-onangiz sizni tarbiyalaydi, ustozingiz bilim beradi, askarlar sizni himoya qiladi, davlat g'amxo'rlik ko'rsatib sharoit yaratadi: yo'llar quradi, maktablar, shifoxonalar quradi, o'qitadi... Agar biz bularni qadrlamasak, shunchaki foydalanib yuraversak, bu yetarliymi?

O‘quvchilar: Yo‘q.

O‘qituvchi: Qadrlash – bu rahmat aytish, hurmat qilish, yaxshilikni unutmaslik degani. Kim boshqalarni qadrlasa, o‘zi ham qadr topadi. Kelinglar, shu haqida video tomosha qilamiz.

Vizual kontent

Ertak qahramonlari: “Insonlarni qadrlang!”

<https://youtu.be/-JBGXC6M-Kc>

O‘qituvchi: Endi kichkina bir holatni tasavvur qilamiz. Agar sinfda ikki bola urishib qolsa, nima bo‘ladi?

O‘quvchilar: Shovqin bo‘ladi. Dars buziladi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri. Endi biz yashayotgan Yer kurrasini bir sinf, undagi davlatlarni o‘quvchilar deb olsak, shu holatni tasavvur qiling. Agar davlatlar urishsa, bolalar qo‘rqadi, uylar buziladi, o‘quvchilar maktabga bora olmaydi, hech nima qurilmaydi, faqat buziladi. Odamlar yaxshi ishlarga sarflashi kerak bo‘lgan kuchini urushga sarflaydi.

Shuning uchun tinchlik – eng katta boylik. Tinchlik bo‘lsa, bolalar kuladi, shaharlar quriladi, qishloqlar obod bo‘ladi, hayot chiroyli bo‘ladi.

O‘qituvchi: Endi o‘ylab ko‘ring. Agar biz o‘tganlarni eslasak va to‘g‘ri xulosa qilsak (xotira), ularni hurmat qilsak (qadr), urushsiz yashashni istasak (tinchlik) – bu nimaga olib keladi?

O‘quvchilar: Yaxshilikka. Tinch hayotga.

O‘qituvchi: Aynan shuning uchun 9-may – Xotira va qadrlash kuni deb ataladi. Bu kun o‘tganlarni unutmaslik, tiriklarni qadrlash, tinchlikni asrash kuni.

Buyuk shoir bobomiz Erkin Vohidov tinchlikni asrash va urushlarga “yo‘q” deyish kerakligi haqida “Nido” degan doston yozgan. Dostonda otasi urushga ketgan siz tengi bola haqida hikoya qilinadi. Kelinglar, shu dostonidan parcha tomosha qilamiz.

Vizual kontent

“Nido” dostonidan parcha – Shahriyor Shavkat ijrosida

https://youtu.be/kA_WoljuSEk

O‘qituvchi: Bolajonlar, urush doimo yomon narsadan boshlanadi. Ba’zi odamlar: “men boshqalardan ustunman” deydi, boshqalarni yomon ko‘radi. Bu noto‘g‘ri fikr. Buni irqchilik deyishadi.

Tarixda yana shunday odamlar bo‘lganki, ular boshqa xalqlarni yo‘q qilishni istagan, kuch bilan boshqarishni xohlagan. Bu esa fashizm deb ataladi. Butun

dunyoni titratgan, 20 million odamning o‘limiga sabab bo‘lgan Ikkinchi jahon urushi aynan shu fashizm tufayli boshlangan.

Shuning uchun sizlar millatchilik qilmanglar, mahalliychilik ham qilmanglar. Biz hammamiz O‘zbekiston fuqarolarimiz, bir mamlakatda yashaymiz. Biz o‘zaro ahil bo‘lsak, yurtda tinchlik bo‘ladi. Katta bo‘lib xorijga o‘qishga yoki sayohatga borganingizda, o‘zingizga o‘xshamagan boshqa millat vakillarini ko‘rganingizda, ularning qaysidir ishlari sizga tushunarsiz ko‘rinsa ham, ustidan kulmanglar. Dunyodagi har bir millatga hurmat bilan qarash kerak. Shunda urushlar bo‘lmaydi.

Bizning xalqimiz doimo tinchlikni sevgan, boshqalarga mehribon bo‘lgan, do‘stlikni qadrlagan.

Urush paytida bizning yurtimiz katta sinovdan o‘tgan. Minglab yigitlar frontga ketgan, ko‘plari qaytmagan, onalar farzandlarini kutgan. Lekin xalqimiz shunday vaziyatda ham boshqa davlatlardan kelgan bolalarni uyiga olgan, ularga non va mehr bergan. Odamlar dalada ishlagan, oziq-ovqat yetishtirgan va frontni ta‘minlagan. Bu haqiqiy fidoyilik edi.

O‘zbek xalqining urushda frontda va front ortida qilgan fidoyiligi va jasoratiga bag‘ishlab yurtimizda “G‘alaba bog‘i” barpo etilgan. Hozir shu bog‘dan bir reportajni tomosha qilamiz. Unda bog‘ go‘yoki tilga kiradi va o‘z dardlarini so‘zlaydi. Juda ta‘sirli video.

Vizual kontent

G‘alaba bog‘i tilga kirs...

<https://youtu.be/I-z62whxQxQ>

O‘qituvchi: Qahramonlar faqat urushda bo‘lmaydi. Masalan, bir bola suvga cho‘kayotgan boshqa bolani qutqaradi. Askar yurtni himoya qiladi. Ichki ishlar xodimi jinoyatchini to‘xtatadi. Ba’zida ular bu ishlarni qilayotganida o‘z hayotini ham qurbon qiladi.

Shuning uchun biz ularni eslaymiz, hurmat qilamiz, ularning yo‘lini davom ettiramiz.

Endi kichkina, lekin juda muhim o‘yin o‘ynaymiz. O‘yinimiz nomi: **“Qahramon nima qiladi?”**

Men sizlarga turli holatlarni aytaman. Siz esa o‘ylab, qahramon bu vaziyatda nima qilgan bo‘lardi, deb javob berasiz. Tayyormisiz?

O‘quvchilar: Ha!

O‘qituvchi: 1-holat. Ko‘chada kichkina bola yiqilib tushdi va yig‘layapti. Qahramon nima qiladi?

O‘quvchilar: Yordam beradi. Ko‘taradi. Ovutadi.

O‘qituvchi: To‘g‘ri, qahramon – yordam beradigan inson.

2-holat. Sinfda ikki bola janjallashib qoldi. Qahramon nima qiladi?

O‘quvchilar: Ajratadi. Tinchlantiradi.

O‘qituvchi: Demak, qahramon – tinchlikni saqlaydi.

3-holat. Kimdir yordam so‘rayapti, lekin boshqalar e‘tibor bermayapti.

Qahramon nima qiladi?

O‘quvchilar: Yordamga boradi.

O‘qituvchi: Ajoyib! Qahramon – befarq bo‘lmaydigan inson.

O‘qituvchi: Ko‘rdingizmi, bolajonlar, qahramon bo‘lish uchun katta bo‘lish shart emas. Har biringiz kichik yaxshiliklar bilan ham qahramon bo‘la olasiz.

III. YAKUNIY QISM (10 daqiqa)

O‘qituvchi: Bolajonlar, bugun sizlar uchta muhim narsani bilib oldingiz.

Doskaga yozadi:

Xotira – yurakdagi quyosh.

Qadr – minnatdorlik.

Tinchlik – eng katta baxt.

O‘qituvchi: Agar siz kattalarga yordam bersangiz, do‘stlaringiz bilan urishmasangiz, yaxshilikni unutmangiz, siz ham Vatanga xizmat qilgan bo‘lasiz.

Unutmang, tinchlik osmondan tushmaydi. Uni odamlar o‘zining fidoyiligi, jonkuyarligi va to‘g‘ri qarorlari bilan yaratadi. Biz buni qadrlashimiz kerak.

Ana shunda sizlar haqiqiy vatan va tinchlik himoyachilari bo‘lib ulg‘ayasiz.

Endi esa darsimizni hammamizga sevimli musiqiy daqiqalar bilan yakunlaymiz. Qani, o‘rnimizdan turamiz va birgalikda qo‘shiq kuylaymiz. Qo‘shig‘imiz tinchlik haqida. Bu qo‘shiq orqali biz urushga “yo‘q” deymiz, tinchlikni asrashga o‘rganamiz. Qani, boshladik!

Musiqiy kontent

“Tinchlik bo‘lsin!” – karaoke

https://t.me/kelajaksoati_rasmiy/568

O‘qituvchi: Shu bilan bugungi darsimiz nihoyasiga yetdi. Yurtimiz doim tinch bo‘lsin, Yer yuzida urushlar bo‘lmasin. Xayr, salomat bo‘linglar.